



MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISHLAB CHIQLILGAN TAKLIFLAR

i.f.d., dots. Normurzayev Umid

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha inspeksiya

ORCID: 0009-0001-0130-8766

umid.normurzayev@soliq.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatda soliq sohalarida ko'p yillardan buyon soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha rivojlantirish sarhisobi, biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasini o'rni va ahamiyati yoritilgan. O'zbekiston soliq tizimida amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, soliq tushumlari, tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

ПРЕДЛОЖЕНИЯ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ В НАШЕЙ СТРАНЕ

д.э.н., доц. Нормурзаев Умид

Инспекция по работе с крупными налогоплательщиками

Аннотация. В статье подведены итоги многолетнего прогресса страны в совершенствовании налогового администрирования в налоговой сфере, подчеркнуты роль и значение межрегиональной налоговой инспекции в совершенствовании масштабных реформ, направленных на дальнейшее укрепление доверия деловых кругов. Изучены некоторые важные реформы, реализуемые в налоговой системе Узбекистана, разработаны научно-практические выводы и предложения на основе зарубежного опыта и его применения в нашей стране.

Ключевые слова: налоговая политика, налоговые поступления, анализ, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

PROPOSALS FOR IMPROVING TAX ADMINISTRATION IN OUR COUNTRY

DSc, assoc. prof. Normurzaev Umid

Tax Inspection on large taxpayers

Abstract. The article summarizes the country's long-term progress in improving tax administration in the tax sphere, emphasizes the role and importance of the interregional tax inspectorate in improving large-scale reforms aimed at further strengthening the trust of business circles. Some important reforms implemented in the tax system of Uzbekistan have been studied, scientific and practical conclusions and proposals have been developed based on foreign experience and its application in our country.

Keywords: tax policy, tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, optimization, tax incentives, tax rate.

Kirish.

Hozirda jahonda soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Soliq siyosati strategiyasi orqali inklyuziv o'sish sur'atlariga erishish, soliq tizimida daromadlarni oshirish qobiliyatini oshirish hamda davlat xarajatlarning barqarorligini ta'minlash, rivojlanayotgan davlatlarning fiskal siyosatini kuchaytirish, adolatli va inklyuziv soliq tizimini joriy etish, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli platformalardan samarali foydalanish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida yangi mazmundagi strategik maqsadlarni belgilab beruvchi soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirib borish, adolatli soliq tamoyillariga asoslangan soliq tizimini yanada rivojlantirib borish yo'nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirish bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga bunday soliq siyosatining samaradorligini ta'minlashda, hali o'z yechimini kutayotgan ilmiy-amaliy muammolar ham mavjud.

Adabiyotlar sharhi.

G'arb iqtisodchilari "S.Fisher, R.Dornbush va R.Shmalenzilarning fikricha, soliq siyosati mustaqil tushuncha hisoblanmaydi. Ular soliq siyosati tushunchasiga fiskal siyosat tushunchasi orqali yondoshadilar. Fiskal siyosat esa davlatning o'z daromadlari va xarajatlari bo'yicha qaror qabul qilishi bo'lib hisoblanadi" - deb ta'kidlashadi (Жўпаев, Сафаров, 2005).

Aronov, Kashinlar (2007) esa "maksimal soliq siyosatining mazmunini soliq siyosatining asosiy strategiyasi sifatida qaraydi, ya'ni, ularning fikricha, soliqlar sonini oshirish, soliq stavkalarini oshirish, soliq imtiyozlarini kamaytirish soliq siyosatining strategik maqsadlari sifatida qabul qilinishi mumkin" ta'riflaydi.

Mayburov (2007) "soliq islohoti soliq tizimini tubdan o'zgartirishni davlat soliq siyosatining yangi mazmuniga moslashtirish" deb ta'kidlaydi.

Dementeva (1689) soliq siyosatini davlat iqtisodiy siyosatining in'ikosi ekanligini, u mustaqil ahamiyatga egaligi va soliqlarning ilmiy nazariyasiga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. "Amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari ko'p jihatdan davlat o'z iqtisodiy siyosatiga qanday tuzatishlar kiritishga majbur ekanligini, soliq tizimini qanday qurish kerakligini belgilaydi"

Karp (2001) Soliq siyosati davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi, soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Sitnikovanning (2012) fikricha, "konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchilar guruhiga kiritishda aktivlarini tan olish yoki maxsus qayta baholash zarur, guruhga kirishdan oldin korxonaning zararlarini o'tkazish tartibi ishlab chiqilishi lozim, konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining bir xil qiymatga ega bo'lgan sub'ekt sifatida xalqaro e'tirof etilishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim".

Darkina (2019) yirik soliq to'lovchilarning xususiyatlari sifatida to'xtalib, "yirik soliq to'lovchilarga quyidagi xususiyatlar xosdir: katta pul oqimi, keng ko'lamli hujjatlar aylanmasi, soddalashtirilgan tizim bo'yicha soliqqa tortiladigan turli tarkibiy bo'linmalarining integratsiyasidan foydalanish, mamlakat ichida ham, chet elda ham turli firmalar bilan hamkorlik mavjudligidir".

Tahlil va natijalar muhokamasi.

"Xalqaro valyuta jamg'armasining hisob-kitoblariga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida soliqlardan tushumlar YaIMning 15-25 foizini, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda ushbu ko'rsatkich 40 foizni tashkil etadi. Ushbu tashkilotning tavsiyalariga ko'ra,

ayrim daromadi past hamda bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda oxirgi yigirma yillar oralig'ida soliq siyosatida islohotlar amalga oshirilishi natijasida soliq tushumlarining keskin o'sishi kuzatilganligi ham samarali soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish muhimligini ko'rsatmoqda". Shunga ko'ra, jahon miqyosida soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda.

"O'zbekiston-2030" Strategiyasiga muvofiq, soliq organlari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada yaxshilash, raqamlashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish, soliq organlari faoliyatida shaffoflikni ta'minlash hamda inson resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshirish maqsadida quydagilarni taklif etamiz:

Maqsad va ustuvor yo'nalishlar:

Amaldagi shartlar: Soliq organlarida soliq to'lovchilardan aniqlangan soliq xavflari bo'yicha tushuntirishlarni talab qilish va soliq xavflarini bartaraf etish yuzasidan kelishuv taklif etish huquqi mavjud emas.

Taklif: Soliq organlariga soliq to'lovchilardan aniqlangan soliq xavflari bo'yicha tushuntirishlarni talab qilish va soliq xavflarini bartaraf etish yuzasidan kelishuv taklif etish huquqini berish. Buning uchun, Soliq kodeksining 26-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim bo'ladi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish: Soliq organiga Soliq xavfi doirasida Xavfni ko'rib chiqish jarayonini amalga oshirish funksiyasi qo'shilmoqda. Xalqaro ekspert (G.Kandilaki) fikriga ko'ra Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasida ushbu funksiya bo'lishi lozim. Masalan: "O'ZTRANSGAZ" AJ va Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasi jamiyatda aniqlangan soliq xavflarini bartaraf etish yuzasidan 2025-yil 24-martda muhokama o'tkazgan bo'lib, muhokama natijasida jamiyat 2025-yil aprel oyida QQS va foyda solig'i bo'yicha jami 1,1 trln.so'mga qayta hisobotlar taqdim etgan.

Amaldagi shartlar: Soliq kodeksida soliq to'g'risidagi qonunchilik ushbu Kodeksdan va qabul qilinishi ushbu Kodeksda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan iboratligi keltirilgan bo'lsada, soliq solish maqsadida yuridik shaxslarning daromadlarini aniqlashda eng kam qiymat boshqa qonunchilikka ko'ra amalda foydalanib kelinmoqda.

Taklif: Soliq kodeksiga yuridik shaxslarning daromadlarini soliq solish maqsadida aniqlashda qonunchilikda belgilangan eng kam qiymatdan foydalanish bo'yicha qoida kiritish. Buning uchun, Soliq kodeksining 297-moddasi uchinchi qismi 251-bandiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim bo'ladi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish: Ma'lumki ko'chmas mulklarni ijaraga berishda soliq solish maqsadida eng kam qiymatlari kiritilgan bo'lib, ushbu tartib soliq kodeksida nazarda tutilmagan. Shu sababli, soliq to'lovchilardan e'tirozlar kelib tushmoqda.

Amaldagi shartlar: Soliq kodeksida Soliq to'g'risidagi qonunchilik ushbu Kodeksdan va qabul qilinishi ushbu Kodeksda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan iboratligi keltirilgan bo'lsada, soliq solish maqsadida jismoniy shaxslarning daromadlarini aniqlashda eng kam qiymat boshqa qonunchilikka ko'ra amalda foydalanib kelinmoqda.

Taklif: Soliq kodeksiga jismoniy shaxslarning daromadlarini soliq solish maqsadida aniqlashda qonunchilikda belgilangan eng kam qiymatdan foydalanish bo'yicha qoida kiritish. Buning uchun, Soliq kodeksining 366-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim bo'ladi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish: Ma'lumki ko'chmas mulklarni ijaraga berishda soliq solish maqsadida eng kam qiymatlari kiritilgan bo'lib, ushbu

tartib soliq qodeksida nazarda tutilmagan. Shu sababli, soliq to'lovchilardan e'tirozlar kelib tushmoqda.

Amaldagi shartlar: Soliq kodeksining 311-moddasiga muvofiq yer qa'ridan foydalanuvchi soliq to'lovchilarga foydali qazilmalarni qazib olishga doir tayyorgarlik ishlari uchun amalga oshirilgan xarajatlarini har yilgi summasini belgilangan norma doirasida amortizatsiya qilinishi keltirilgan. Foyda solig'ini hisoblashda soliq to'lovchilar yillik amortizatsiya normasini o'n ikkidan bir qismi o'rniga dekabr oyida to'liq bo'lmagan yil uchun yillik norma qo'llab kelmoqda.

Taklif: Foyda solig'ini hisoblashda yer qa'ridan foydalanuvchi soliq to'lovchilarga foydali qazilmalarni qazib olishga doir tayyorgarlik ishlari uchun amalga oshirilgan xarajatlarini yillik norma doirasida har oyda teng ulushlarda amortizatsiya qilinishini aniq belgilash. Buning uchun, Soliq kodeksining 311-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim bo'ladi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish: Yer qa'ridan foydalanuvchi soliq to'lovchilarni kelgusida moliyaviy qiyinchilikka tushib qolishini oldini olish maqsadida foydali qazilmalarni qazib olishga doir tayyorgarlik ishlari uchun amalga oshirilgan xarajatlarni oyma oy teng ulushda chegirib borish taklif etimoqda. Natijada byudjetga to'lanadigan foyda solig'i summasida keskin tebranish holatlari oldi olinadi.

Amaldagi shartlar: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-martdagi 168-sonli qarori bilan Hisobvara-q-fakturalarning shakllari hamda ularni to'ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish kiritilib, tovarlar uzluksiz realizatsiya qilinganda EHFni oyning oxirgi sanasi bilan emas realizatsiya qilingan kunda rasmiylashtirish belgilandi, natijada Hisobvara-q-fakturalarning shakllari hamda ularni to'ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom va Soliq kodeksi o'rtasida qarama qarshilik yuzaga keldi.

Taklif: Hisobvara-q-fakturalarning shakllari hamda ularni to'ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom va Soliq kodeksi o'rtasida qarama qarshilikni bartaraf qilish lozim. Buning uchun, Soliq kodeksining 242-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim bo'ladi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-martdagi 168-sonli qaroriga asosan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-sonli qarori 6-bandiga kiritilgan o'zgarishda "tovarlar (xizmatlar) doimiy (uzluksiz) asosda realizatsiya qilinadigan boshqa xollarda tovarlar yetkazib berilganda (xizmatlar ko'rsatilganda)" hisobvara-q-faktura kalendar oyning so'nggi kunida mazkur oy davomida jami yetkazib berilgan tovarlar (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmi bo'yicha bir marta taqdim etilishi bekor qilindi. Biroq, Soliq kodeksining 242-moddasi oltinchi qismiga o'zgartirish kiritilmadi. Mazkur holat Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-sonli qarori 6-bandiga kiritilgan o'zgarishga qarama-qarshilikni keltirib chiqarmoqda.

Amaldagi shartlar: Transfert narxni belgilashda soliq nazorati doirasida nazorat qilinadigan bitimlar tuzilganligi munosabati bilan soliqlarning to'liq hisoblab chiqarilishi va to'lanishini tekshirish O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan uning joylashgan yeri bo'yicha o'tkazilishi belgilangan.

Taklif: Transfert narxni belgilashda soliq nazorati doirasida nazorat qilinadigan bitimlar tuzilganligi munosabati bilan soliqlarning to'liq hisoblab chiqarilishi va to'lanishini tekshirish o'tkazish huquqini Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasiga ham berish. Buning uchun, Soliq kodeksining Transfert narxni belgilashda soliq nazorati bo'limi 176, 178, 180, 181, 184, 185, 186, 193, 194, 195 va 200-moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim bo'ladi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish: Yirik soliq to'lovchilarning ko'pchilik qismi o'zaro aloqador korxonalar bilan moliyaviy munosabatga kirishi yoki nazorat qilinadigan bitimlar tuzishi amaliyotda mavjud. Soliq qo'mitasi tomonidan ushbu

korxonalarning faoliyati to'liq qamrab olish imkoni kamligi sababli, ushbu korxonalarda transfert narxini belgilashda soliq nazorati o'tkazish, byudjetga qo'shimcha manbalarni aniqlash qamrovi kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-226-sonli (18.07.2025 y.) qarorida investorlarga berilayotgan daromadga asoslangan imtiyozlardan xarajatlarga asoslangan imtiyozlarga o'tish mexanizmini joriy etish topshirig'i berilgan.

Ma'lumot uchun, 2025 yil 1-yarim yilligida foyda solig'i imtiyozlari 2,8 trln so'mni tashkil qilib, ushbu imtiyozlar quyidagi tarzda:

soliqdan to'liq ozod qilish – maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari 3-10 yilga foyda solig'idan ozod (2025-yil 1-yarimda imtiyoz summasi 470 mlrd.so'm);

soliq stavkasini kamaytirish – elektrotexnika tarmog'i korxonalari foyda solig'i stavkasini 50 foizga kamaytirishi (72,5 mlrd.so'm);

ayrim daromadlarni soliqdan ozod etish – repo operatsiyalari daromadlar hisoblanmasligi kabi daromadlarga asoslangan holda taqdim etilgan.

Daromadlarga asoslangan imtiyozlarning aksariyati yangi texnologik uskunalarni sotib olish, ishlab chiqarishni kengaytirish, ish o'rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirishga bog'lanmagan. Shu sababli, imtiyozlar daromadlarni reinvestitsiya qilishni rag'batlantirmaydi, balki ulushdorlarning dividend tarzidagi daromadlarini oshiradi. Bunday imtiyozlar mahalliy va xorijiy investorlarga ko'rilgan foydaning katta qismini soliqlarsiz biznesdan yoki mamlakatdan olib chiqib ketishga imkon beradi. Xalqaro valyuta jamg'armasi joriy yilgi missiyasi doirasida tadbirkorlarni foyda solig'idan ozod qilish o'rniga xarajatlarga asoslangan imtiyozlar, ya'ni investitsiyalarni ko'proq rag'batlantiruvchi tezlashtirilgan amortizatsiya tartibini joriy qilish samaraliroq ekanligini qayd etgan. Tezlashtirilgan amortizatsiya tartibi normalar doirasida amortizatsiya summasiga qo'shimcha ravishda daromadlarga teng miqdorda qo'shimcha amortizatsiya qilishga imkon beradi. Bu esa korxonalarga uskunalar qiymatini yanada tezroq qoplab olishga va qayta ishlab chiqarishni kengaytirish uchun mablag'larni sarflashga imkon beradi. Ushbu davrda qo'shimcha amortizatsiya xarajatlari tufayli foyda solig'i bazasi yuzaga kelmaydi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, tadbirkorlar har yili uskunalariga qilgan investitsiyalarining 20 foizini biznesdan ko'rgan daromadidan chegirib tashlash huquqiga ega (binolarga 5 foiz, kompyuterlarga 40 foiz).

Gruziya, Estoniya va Latviya kabi davlatlarda korxona asosiy vositalar foydalanishga topshirilgan soliq yilida aktivlarning qiymatini to'liq chegirib tashlash imkoniyatiga ega. Soliq to'lovchi Gruziyada ushbu tartibdan 5-yil davomida foydalanishi mumkin. Umumiy tartibda vaqtinchalik imtiyozlarni taqdim etish Soliq kodeksiga ko'ra 3-yilni tashkil qiladi.

XVJ amaldagi soliq imtiyozlarining muddatlarini saqlab qolgan holda bosqichma-bosqich ushbu tartibdan voz kechish hamda soliq stavkasini pasaytirish tarzida imtiyozlarni bermaslikni ta'kidlagan.

Taklif. 2026-yil 1-yanvardan:

foyda solig'i imtiyozlarini amortizatsiya qilinadigan barcha aktivlar (bundan nomoddiy aktivlar mustasno) bo'yicha tezlashtirilgan amortizatsiya qilish tarzida taqdim etish tartibini joriy etish, xususan maxsus iqtisodiy zonalarining yangi ishtirokchilariga ushbu tartibni qo'llash;

imtiyozlarni ushbu tartibda 3 yilga qadar taqdim etish;

kelgusida amalda taqdim etilgan imtiyozlarni bosqima-bosqich ushbu tartibga o'tkazish.

2. Elektron tijorat sub'ektlari.

Bugungi kunda, chakana savdoning "drayver" yo'nalishi bo'lgan elektron tijorat sohasi onlayn savdo platformalari rivojlanishi fonida aholiga qo'shimcha vaqt va qulaylik taqdim etganligi sababli tabiiy ravishda izchil rivojlanib bormoqda. Respublikada joriy yilning 1-yarmida 188 ta elektron tijorat sub'ektlarining jami daromadlari 2,6 trln.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 41 foizga oshgan.

Shunga qaramasdan, elektron tijorat sub'ektlari uchun foyda solig'ining stavkasi 10 foiz, aylanmadan olinadigan soliq stavkasi esa 3 foiz etib belgilangan. Lekin, boshqa oddiy tijorat sub'ektlari foyda solig'ini 15 foiz, aylanma solig'ini 4 foiz miqdorda to'lab kelmoqda. Misol uchun, elektron tijorat bilan shug'ullanuvchi "Oriflame" MChJ 2024-yilda 113 mlrd.so'm tovar aylanma amalga oshirib, 1 mlrd. so'm foyda solig'i to'lagan. Lekin, oddiy savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi "Maximum Dream" MChJ tomonidan 121 mlrd.so'm tovar aylanma amalga oshirib, 1,6 mlrd so'm foyda solig'i yoki elektron tijorat sub'ektiga nisbatan 60 foiz ko'p soliq to'lagan.

Boshqa davlatlar, xususan Qozog'iston (20%), Rossiya (25%), Gruziya (15%), Latviya (20 %), Estoniya (20%), Armaniston (18 %) kabi davlatlarda elektron tijorat sub'ektlari foyda solig'ini bazaviy stavkada to'laydi.

Taklif. 2026-yil 1-apreldan boshlab elektron tijorat sub'ektlariga belgilangan foyda va aylanmadan olinadigan soliq stavkalarini bazaviy stavka (mos ravishda 15% va 4%) bilan tenglashtirish. Mazkur taklif Gruziyaning "Reformatiks" konsalting tashkiloti tomonidan ham ijobiy qo'llab-quvvatlandi.

3. Qo'shilgan qiymat solig'i metodologiyasini takomillashtirish.

a) Amaldagi soliq qonunchiligida, havo kemalariga bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo hududida ko'rsatiladigan xizmatlarni, shu jumladan aeronavigatsiya xizmatini realizatsiya qilish chog'ida QQSning nol stavkasi bo'yicha soliq solish amalga oshiriladi deb belgilangan. Natijada, soliq to'lovchilar nol stavka nafaqat xalqaro tashishlar bilan bog'liq xizmatlarga, balki mahalliy tashishlarga ham qo'llaniladi deb talqin qilmoqda va bu amaliyotda soliq nizolarini keltirib chiqarmoqda.

Yevropa Ittifoqi, Kanada, Avstraliya, Hindiston, JAR, Rossiyada xalqaro aviatashishlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarga QQSning nol stavkasi qo'llaniladi.

Misol uchun, QQSning nol stavkasi Rossiya Federatsiyasi Hukumati tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha bevosita Rossiya Federatsiyasining xalqaro aeroportlarida xalqaro havo tashuvlarida ko'rsatiladigan xizmatlarga qo'llaniladi. Ushbu ro'yxatga havo kemalarining uchishi, qo'nishi, boshqarilishi va to'xtab turishini ta'minlash, aerovokzal (terminal) berish, transport xavfsizligini ta'minlash, havo kemalariga, yo'lovchilarga, havo kemalari ekipajlariga yerda xizmat ko'rsatish, bagajga, yuklarga va pochtaga ishlov berish, havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish xizmatlar kiradi.

Qozog'iston. Xalqaro tashishlar bilan bog'liq bo'lgan, realizatsiya qilish joyi Qozog'iston Respublikasi bo'lgan ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalar QQSdan ozod qilinadi, xususan Qozog'iston Respublikasining havo hududidan foydalanish va aviatsiya faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aeroport faoliyati tarkibiga kiruvchi tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha texnik va aeronavigatsiya xizmatlari.

Taklif. 2026-yil 1-yanvardan Soliq kodeksining 263-moddasiga xalqaro tashuvlarga QQS nol stavkasining qo'llanilishini aniq belgilab qo'yish.

b) Amalda, garov predmeti (mulk) auksion orqali sotilganda EHF rasmiylashtirilmasdan qolmoqda va bu garov predmetini sotib olgan xaridorga QQSni hisobga olish imkoniyatini bermayapti. Misol uchun, "Elmas Hali" MChJ elektron-onlayn auksiondan boshlang'ich qiymati 1,25 mlrd.so'm bo'lgan binoni 2 mlrd.so'mga sotib olgan. Biroq mazkur mablag'lar doirasida mulk egasi tomonidan xaridorga EHF taqdim etilmagan va bu xaridorning QQSni hisobga ololmasligiga olib kelgan. 2024-yilda 5,3 mingta (2023-yilda 2 mingta) onlayn auksionda qariyb 1,5 trln.so'mlik (2023-yilda 813 mlrd.so'm) garov predmetlari sotilgan.

Qozog'iston. Garovga qo'yuvchi tomonidan garovga qo'yilgan mol-mulkni sotib oluvchiga yoki garovga oluvchiga mulk qilib berish tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma hisoblanadi. QQS bazasi:

garovga qo'yilgan mol-mulk realizatsiya qilinganda - realizatsiya qilishning qo'llanilgan narxidan kelib chiqib, realizatsiya qilinayotgan garovga qo'yilgan mol-mulk qiymati miqdorida;

garovga qo'yilgan mol-mulk garovga oluvchining mulkiga aylantirilganda - mol-mulkni baholovchining xulosasi asosida sudning qarori yoki ishonchli shaxs tomonidan belgilanadigan joriy baholash qiymati miqdorida.

Taklif. 2026-yil 1-apreldan garov predmetini auksion orqali realizatsiya qilishda vakolatli organlar ("E-auksion" operatori yoki MIB) tomonidan vositachi sifatida rasmiylashtirish va bunda QQS bazasini mol-mulk qiymatining ichida inobatga olish. Takliflar ma'qullangan taqdirda, kelgusi yil uchun soliq byudjet siyosatini takomillashtirish doirasida tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishda inobatga olinadi.

Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish:

(a) Soliq qo'mitasi tomonidan xalqaro tashkilotlar hamda boshqa davlatlarning soliq organlari bilan ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish orqali yuqori daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslarni (Nigh Net Worth Individuals) soliqqa tortish tizimi bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasida ushbu yo'nalishda faoliyat yuritadigan alohida bo'linma tashkil etish choralari ko'rish lozim;

(b) Xalqaro valyuta jamg'armasi ekspertlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan tovarlarni aynan bir yetkazib berish zanjiri bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olishda elektron hisobvara-fakturalarni real vaqt rejimida inson omilisiz avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish tizimi joriy etish lozim.

Bunda, elektron hisobvara-fakturalarning yuqori xavf darajasining ulushi hisobot davridagi jami elektron hisobvara-fakturalarning 10 foizidan oshmasligi lozim hamda bunday xavf darajasiga tushgan elektron hisobvara-fakturalar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi byudjetga sotuvchi yoki xaridor tomonidan to'liq to'langandan keyin hisobga olinadi, shuningdek tovar va xizmatlarni xaridoriga hisobvara-fakturalardagi qo'shilgan qiymat solig'i summasini budjetga to'lash vakolati berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Raqamlashtirish va innovatsion yechimlar orqali samaradorlikni oshirish.

Raqamlashtirish va innovatsion yechimlar orqali samaradorlikni oshirish hamda soliq to'lovchilarga moliyaviy va ma'muriy yuklamalarni qisqartirish bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirsin uchun quyidagilarga e'tibor qaratish kerak bo'ladi:

(a) soliq organlarining biznes jarayonlarini to'liq raqamlashtirish va avtomatlashtirish tizimini joriy etsin hamda katta ma'lumotlar (big data) bilan ishlash infratuzilmasi modernizatsiya qilish;

(b) Soliq qo'mitasi va tijorat banklari o'rtasida jismoniy shaxslarning plastik kartalari orqali bir oyda bazaviy hisoblash miqdorining 300-350 baravari va undan ortiq miqdordagi operatsiyalar bo'yicha o'zaro ma'lumot almashinuvi tizimi joriy etilsin lozim bo'ladi.

(v) soliq organlarida biznes tahlil tizimini joriy etishda real vaqtda ishlash uchun ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va hisobot berish kabi texnologik infratuzilmani yaratsin maqsadga muvofiq;

(g) sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida soliqdan qochish holatlarini aniqlash, soliq nazoratini kuchaytirish va barcha soliq to'lovchilari uchun teng raqobatdosh muhit yaratish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va belgilash.

(d) malakali ekspertlar va olimlar bilan hamkorlikda raqamli soliq ma'murchiligini va soliq organlarining raqamli transformatsiya qilish konsepsiyasini ishlab chiqishga ko'maklashish. Bunda soliq ma'murchiligida ilg'or rivojlangan davlatlar tajribasi asosida raqamli transformatsiya qilish (Soliq ma'murchiligi 3.0) tizimini joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib ayrim ilmiy xulosalar shakllantirildi:

Har tomonlama tahlil va nazariy tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, respublikamiz soliq tizimida davlat soliq siyosatini ilgari surish va uni strategik maqsadlarga muvofiqlashtirish bo'yicha qator masalalar mavjud:

-soliq ma'muriyatchiligidagi muammolarni uchta toifaga bo'lish mumkin, ular ko'plab mamlakatlarda keng tarqalgan va o'tish davri iqtisodiyoti uchun alohida ahamiyatga ega ekanligi:

Soliq to'lovchini hisobga olish va hisobga olish bilan bog'liq masalalar:

-soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish va hisobga olishning nomukammalligi umumiy muammolardir.

Soliq organlarining soliq to'lovchilarga xizmatlarini yaxshilash:

Soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishni rag'batlantiradigan shart-sharoitlarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Soliq xizmatining ijobiy imidjini yaratish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Soliq to'lovchilar o'rtasida soliq madaniyatini yuksaltirish asosiy yo'nalish hisoblanadi.

Mahalliy soliq boshqaruvidagi muammolar:

Mahalliy soliqlar iqtisodiy sharoitlarga va soliq to'lovchilarning faoliyatiga kamroq bog'liqdir.

Bundan tashqari, soliq siyosatida turli kamchiliklar mavjud:

Soliq tizimida biznes va iste'molchilar tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlarga nisbatan barqarorlik, shaffoflik va betaraflilik yo'q.

Soliq imtiyozlari va preferensiyalarini berishning aniq mezonlari va mexanizmlari mavjud emas.

Soliq ma'muriyatchiligida qo'llaniladigan yangi dasturiy vositalarning murakkabligi soliq to'lovchilarning moslashuviga to'sqinlik qilmoqda.

Idoralararo muvofiqlashtirish bo'yicha mustaqil organning yo'qligi sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlikka ta'sir qiladi.

Norasmiy iqtisodiyot ko'lamini baholashning yagona usuli mavjud emas.

Soliq siyosati samaradorligini monitoring qilish va baholash tizimi mukammal emas. Ijtimoiy shartnoma doirasida konsensus yaratish bo'yicha rivojlangan institutlarning yo'qligi tadbirkorlik faolligiga, byudjet daromadlariga, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ustuvor maqsadlarga erishishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu masalalar mustahkam ilmiy asosga ega.

Yillik byudjet parametrlarini tez-tez o'zgartirish va yil davomida o'zgartirishlar kiritish o'rniga, yanada barqaror yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu o'rta va uzoq muddatli davrlar uchun byudjet daromadlari va soliq siyosati strategiyalarini tasdiqlashni o'z ichiga oladi. Bu strategiyalar nafaqat soliq siyosati va boshqaruvini, balki yil davomida kuchga kiradigan qonunlar, farmonlar va qarorlarni ham qamrab oladi.

Xulosa va takliflar.

Xorijiy tajribani o'rganish natijalari, soliq siyosati samaradorligini baholash bo'yicha ko'pkomponentli mualliflik yondashuvini shakllantirishga imkon berdi, xususan:

- umuman iqtisodiyotga soliq yukining darajasini real baholash uchun-soliqqa tortilmaydigan yoki imtiyozli oborot, ob'ektlarni, alohida soliq to'lovchilarning tarmoqlari va guruhlar bo'yicha yondashishning ahamiyatliligi;

- davlat faoliyatini ta'minlash uchun davlat byudjetining daromad qismida soliq tushumlari prognoz ko'rsatkichlarini kafolatlangan holda ta'minlash;

- soliq risklarini kamaytirish;

- resurs yondoshuvidan foydalanish va maqsadli yondashuv orqali amalga oshirilayotgan soliq siyosatining sifati, belgilangan maqsadlarga erishish;

- yig'ilgan soliqlarni boshqarish va minimal soliq xarajatlari bilan soliq tushumlarini maksimal darajada oshirishni ta'minlash uchun xarajatlar darajasi (tranzaksiya xarajatlari - mehnat, vaqt va boshqalar);

- investitsion jozibadorlik va ishbilarmonlik faolligining o'zgarishi;

- innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini rag'batlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ITTKI, "yashil iqtisodiyot" va boshqalar;

Bizning fikrimizcha, nafaqat barcha mamlakatlarda, jumladan, respublikamiz soliq tizimida davlatning soliq siyosatining ishlab chiqilishi va uni amalga oshirish jarayonlarini baholash uning keyingi bosqichlarini to'g'ri belgilab olishga imkon berish bilan birgalikda, umumiy tarzda milliy iqtisodiyot darajasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samarasini baholashga ham xizmat qiladi. Yuqorida keltirib o'tilgan taklif O'zbekistonda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish va raqamlashtirish amaliyotga joriy qilinishi soliq ma'murchiligini rivojlantirishga olib keladi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar/Literaturalar/Reference:

Аронов А.В., Кашин В.А. (2007) *Налоги и налогообложение: учеб. пособие.* — М.: Магистр, - С. 99-100.

Даркина Ю.А. (2019) *Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. Interactive science.* 3 (37).

Дементева Н.М. (1689) *налоговая политика государства.* https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689.

Жўраев А., Сафаров Ғ. (2005) *Солиқ назарияси. Ўқув қўлланма.* –Т.: "Iqtisod-moliya", 48-бет

Камалнев Тимур Шамилевич (2009). *Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук.* Москва.

Карп М.В. (2001) *Налоговый менеджмент: Учебник для вузов.* – М.: Юнити-дана, -39 с.

Майбуров И.А. (2007) *Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям; под ред. И.А.Майбунова.*-М.: юнити-дана, -655 с.

Нормурзаев У.Х. (2022) *Солиқ имтиёзларининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. 08.00. 07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати.* –Тошкент.

Ситникова Ольга Владимировна (2012) *Совершенствование налогообложения крупнейших консолидированных налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук.* Москва.

Юнак Алексей Алевтинович (2009). *Проблемы правового регулирования налогового контроля и учета крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат юридических наук.* –Москва. с.12.